



## O'QUV JARAYONIDA FALSAFIY AKSIOLOGIK YONDASHUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI

*Shonazarova S.R.*

*Termiz pedagogika instituti boshlang'ich ta'lim  
kafedrası o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** boshlang'ich sinf, falsafiy tushuncha, aksiologik yondashuv, didaktik imkoniyatlar, jarayon, amaliy metodologik muammolar, pedagogika, mazmun, o'qitish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, pedagogik shart-sharoitlar, takomillashtirish.

**Ключевые слова:** начальная школа, философская концепция, аксиологический подход, дидактические возможности, процесс, практически-методические проблемы, педагогика, содержание, обучение, национальные и общечеловеческие ценности, педагогические условия, совершенствование.

**Key words:** elementary school, philosophical concept, axiological approach, didactic possibilities, process, practical methodological problems, pedagogy, content, teaching, national and universal values, pedagogical conditions, improvement.

### **Резюме:**

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida aksiologik yondashuv asosida falsafiy tushunchalarni shakllantirish, unda inson hayoti, pedagogik faoliyatning inson hayotidagi ahamiyati, boshlang'ich sinflarda aksiologik yondashuv asosida falsafiy tushunchalarni shakllantirishning nazariy asoslari, ijtimoiy taraqqiyot jarayonida qadriyatlar sohasidagi o'zgarishlar, qadrlash va qadrsizlanish muammolari, tarixni aksiologik tushunish, qadriyat tizimlarining amal qilish xususiyatlari to'g'risidagi masalalar haqida so'z yuritiladi.

### **Резюме:**

В данной статье рассматривается формирование философских представлений на основе аксиологического подхода у учащихся начальных классов, в том числе о жизни человека, значении педагогической деятельности в жизни человека, теоретические основы формирования философских представлений на основе аксиологического подхода в начальных классах. обсуждаются изменения в сфере ценностей в процессе общественного развития, оценка и проблемы девальвации, аксиологическое понимание истории, вопросы функционирования систем ценностей.

### **Summary:**

In this article, the formation of philosophical concepts based on the axiological approach in primary school students, including human life, the importance of pedagogical activity in human life, the theoretical foundations of the formation of philosophical concepts based on the axiological approach in primary classes, changes in the field of values in the process of social development,



appreciation and problems of devaluation, axiological understanding of history, and issues of functioning of value systems are discussed.

Zamonaviy ta'lim sharoitida uzluksizlik tamoyilini amalga oshirishda ayniqsa, boshlang'ich ta'limni takomillashtirish muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Davomiylik ta'limda bu asosiy vazifalarning o'zaro ta'sirini ta'minlaydigan aloqalar tizimi yagona ta'limni yaratish maqsadiga intilib kelgan va nihoyat bugungi kunga kelib, o'qitish va tarbiya usullari o'quvchi rivojlanishining muhim omili ekanligiga e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, umumta'lim muassasalarida o'quv jarayonini aksiologiya ya'ni qadriyatlarga asoslangan holda o'qitishga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi va bizni o'rab turgan olamni o'rganuvchi fan sifatidagi g'oyaning shakllanishi tufayli amalga oshirilishi mumkin. Ushbu jarayonlarni bilish va tushunish shaxsning kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni shakllantiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Bolalarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", - degan fikrlari yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida yetuk, barkamol etib tarbiyalashda barchamizga kuch-g'ayrat bag'ishlamoqda.

Darhaqiqat, aksiologik fikrlash markazida dunyodagi voqea-hodisalarning o'zaro ta'siri va o'zaro bog'liqligi konsepsiyasi turadi. U tasdiqlaydiki, bizning dunyo - bu butun insoniyat dunyosi, shuning uchun umumiylikni ko'ra bilish lozim, faqatgina insoniyatni birlashtirib qolmay, balki har bir alohida shaxsni tavsiflaydi. Insondan tashqaridagi ijtimoiy taraqqiyotni qarash - uning insonparvarlik poydevoridan alohida fikrlashi demakdir. Aynan, ana shunday tarzda fikrlash zamonaviy jamiyat taraqqiyoti global tendensiyada insonparvarlik kasb etadi, umuminsoniy qadriyatlarini ma'qullashi uning mazmunini tashkil etadi.

Bilimlar tizimi tushunchalar, g'oyalar, qonunlar va faktlar kabi o'zaro bog'langan elementlardan tashkil topgan murakkab tuzilmadir. Bu elementlar odatda maktab o'quv dasturida taqdim etiladigan har bir bilim tizimini o'quvchilar ongida shakllanishini ta'minlash uchun har bir mavzuni ko'rib chiqish jarayonida namoyon bo'ladi.

Ilmiy bilimlar shakliga ko'pincha muammolar, farazlar nazariyalar, tamoyillar, kategoriyalar, qonun va dalillar kiritiladi. Lekin, shu narsa ma'lumki ba'zan yangilish dalillar ham bo'ladi, masalan, ko'p asrlar davomida quyosh

er atrofida aylanadi, degan yanglish ta'limot hukmron bo'lgan (aslida esa teskarisi). Dalil deb haqiqiy hodisa emas, balki uning mavjudligi tog'risida xabar beruvchi bilimlar tushuniladi. Shuning uchun ham ilmiy bilimlarning hamma shakllari va birinchi holda dalillarning haqiqiyliги qattiq tekshirishdan o'tishi lozim.

Ilmiy bilimlarning asosiy xususiyati uning tizimli bo'lishi, ya'ni bir bilimning ikkinchisi orqali mantiqiy isbotlanishidir. Ma'nosi bo'yicha ilmiy bilimlar haqiqatga intilishligi, umumiy hodisalarni hamda butun olamni tadqiq etishga qaratilganligi bilan belgilanadi.

Milliy qadriyatlarning o'ziga xos belgilaridan biri, u millatning ijtimoiy ideallari orzu-intilishlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning negizida kishilar va jamiyatning kelajak haqidagi ijtimoiy sog'lom fikrlari, tasavvurlari, orzu-umidlari, hayotiy andozalari yotadi. Milliy qadriyatlar har bir millatning mohiyatini, o'ziga xos fazilatlarini va tarixiy taraqqiyotini ko'rsatib beruvchi mezon hisoblanadi.

O'z maqsadiga etish uchun har bir fan nazariy jihatdan tizimlashgan bilimlar yig'indisi sifatida tadqiqot jarayonida xilma xil ilmiy usullardan foydalanadi. Fanning asosiy maqsadi shundan iboratki, haqiqatni yanglishishdan, obyektiv bilimni subyektiv fikrdan, aniqlikni mavhumlikdan ajratishdir. Bu maqsadga erishish fikrlash mantiqini rivojlantirishni, atamalar va ramzlar kiritishni, aniq asboblar va tajriba qurilmalari yaratishni taqazo etadi.

Binobarin, Zamonaviy pedagogika fanining asosiy tendentsiyasi - uning shaxsni "anglash", o'z dunyoqarashiga asoslanishga e'tibor qaratganligidir. Bu esa, zamonaviy pedagogik amaliyotning muhim jihatiga aylandi. Pedagogika va inson amaliyotida insonparvarlik an'analarning rivojlanishi, uning hayotiy faoliyat jarayonida o'z oldiga qo'ygan muhim vazifalarni o'zida aks ettiradi.

Inson hayoti har doim bo'lib o'tgan voqealarni baholash, vazifalarni qo'yish, izlash, xulosalar qabul qilish, dunyoqarash vaziyatlarida kechadi. Bunda uning atrof-muhit bilan munosabatlari ikkita farq bilan o'zaro bog'liq: amaliy va abstrakt-nazariy (bilish). Bundan kelib chiqadiki, pedagogika metodologiyasi ta'lim falsafasiga haqiqiy insonparvarlikning mohiyati, borliqning yangilanishi va pedagogik bilish haqidagi nazariy qoidalar yig'indisi sifatida qaraydi.

Bunday metodologiyaga muvofiq, fanlarning, shu jumladan, pedagogikaning insonparvarlik mohiyatidan kelib chiqadigan vazifasi o'zida insonga bilish, muloqot, ijod subyektini sifatida yondashishni aks ettiradi. Atrof-muhitni kuzatish bilan chambarchas bog'liq bo'lgan falsafiy bilimlarga asoslangan holda atrof-muhitdagi mavsumiy o'zgarishlarni kuzatib borishadi, ob-havo belgilarini anglashni o'rganishadi va tabiatga pragmatik, lekin ko'pincha g'amxo'rlik bilan



munosabatda bo‘lishadi. O‘qitish usullarini katta hayotiy tajribaga, pedagogik mahoratga ega bo‘lgan kishilar sifatida shakllantirgan.

Boshlang‘ich sinflarda aksiologik yondashuv asosida falsafiy tushunchalarni shakllantirishning nazariy asoslari, shuningdek, ijtimoiy-pedagogik zaruratini yoritib berish maqsadida aksiologiyaning mazmunini ochib berish lozim. Jumladan, aksiologiya (yunoncha “axio”-qadriyat va “logos”- fan, ta’limot) - qadriyatshunoslik ya’ni qadriyatlar haqidagi fan. XIX asrning ikkinchi yarmida nemis qadriyatshunosi E.Gartman va fransuz olimi P.Lapilar tomonidan fanga kiritilgan. Hozirgi davrda qadriyatlarni o‘rganishda falsafa, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, siyosatshunoslik, antropologiya, psixologiya va pedagogika fanlarini yanada takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Bir qator tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarda aksiologiya fani, aksiologik yondashuv bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan. Aksiologiya fani qadriyatshunoslik deb tarjima qilinadi. Inson nimaniki qadriga etsa, o‘sha uning uchun qadriyatga aylanadi. Bir narsaning qadriga etish uchun uning mohiyatini anglab yetish lozim. Inson avvalo o‘zligini anglashga urinadi. Kichik maktab yoshidagi bola o‘zligini anglagan sari shaxsga aylanib boradi. Demak, inson ma’naviyatiga oid tushunchalar markazida shaxs turadi.

Qadriyatshunoslik asosan qadriyatlar, ularning namoyon bo‘lish shakllari, qadrlash hissi, qadrlash tuyg‘usi, reallikka qadriyatli munosabat va aksiologik yondashuv, ijtimoiy taraqqiyot jarayonida qadriyatlar sohasidagi o‘zgarishlar, qadrlash va qadrsizlanish muammolari, tarixni aksiologik tushunish, qadriyat tizimlarining amal qilish xususiyatlari to‘g‘risidagi masalalarni o‘rganadi. Shuningdek, qadriyatlar ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lib, kishilarning amaliy faoliyati jarayonida paydo bo‘ladi va rivojlanadi.

Aksiologik munosabat faqat yakka, alohida shaxsgagina tegishli hodisa emas. Balki u ijtimoiy guruh, qatlam, millat, davlat, jamiyatga ham tegishli bo‘lishi mumkin. Unda aksiologik yondashuv bilan qadriyatli munosabatlarning individual va ijtimoiy namoyon bo‘lish darajalarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Demak, aksiologiya kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda nafaqat ilmiy dunyo qarashni takomillashtirish balki, millatga xos qadriyatlarni o‘rganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Aksiologik yondashuv keng o‘rganilgan. Masalan, V.A.Slastyonin pedagogik jarayonni va uning subyektlari bilan o‘zaro ta’sirini, aksiologik yondashuvlardan foydalanishning ijobiy jihatlarni o‘rgangan.

Aristotel falsafada qaror topgan va barcha aksiologik ta’limotlar asosini belgilab bergan konsepsiyani ilgari surgan. Mazkur konsepsiya uning quyidagi

g'oyasida o'z ifodasini topgan: "Qancha imkoni bo'lsa, shuncha yuqoriga ko'tarilish lozim va barcha narsani, o'zingdagi eng oliy narsa - hayot uchun qilish darkor, agar u o'z ko'lamiga ko'ra oz miqdorda bo'lsa-da, o'zining quvvati va qadriga ko'ra, u hamma narsadan yuqoridir". Demak, barcha xatti-harakatlar, amallar hayotga xizmat qilishi, uni e'zozlashi, ulug'lashiga muvofiq qadrlidir.

Qadriyatlar falsafasining shakllanishiga I.Kant katta hissa qo'shgan. Uning "har qanday ongli mavjudot o'zi o'ziga maqsaddir" degan g'oyasi negizida insonga vosita emas, oliy qadriyat sifatida qarash zarur, degan fikr yotadi. Shu ma'noda milliy urf - odat va an'analarni yoshlar ongiga singdirish har qanday millat uchun o'z taraqqiyotining maqsad va vazifasi bo'lib qolgan.

T.Abdullayev "Turmush sohasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning dialektikasi" nomli doktorlik dissertatsiyasida milliy va baynalminallik munosabatlar bilan bog'liq qadriyatlarni o'rgangan.

N.A.Astonovanning "Pedagogik aksiologiyaning kontseptual asoslari" maqolasida pedagogik aksiologiyaning predmeti sifatida shaxsning madaniy munosabatini rivojlantirish e'tirof etiladi. Maqolada qayd etilishicha, ana shu jihat bilan pedagogik aksiologiyaning funksiyalari uning o'ziga xosliklarini belgilashga imkon beradi.

Pedagogik aksiologiyaning asosiy tushunchalari qatoriga quyidagilar kiradi: qadriyat, aksiologik ong, aksiologik dunyo qarash, aksiologik baholash, aksiologik munosabat, qadriyatli xulq atvor, qadriyatli ustanovka, aksiologik yo'nalganlik, ta'lim, tarbiya. Qadriyatlar qachonki, insonda aksiologik ong va aksiologik munosabatlar shakllantirilgan sharoitdagina, uning faoliyati va xulq-atvorini mo'ljalga olishga imkon beradi.

Aksiologik yo'nalganlik yaxlitlikda shaxsning faoliyat va xulq atvordagi aniq qadriyatlarga yo'nalganligini aks ettiradi, har bir aniq vaziyatlarda esa shaxs qadriyatli ong va qadriyatli munosabatlarga rahbarlik qiladi.

Shuningdek, pedagogik hodisalarga ijtimoiy-sotsiologik yondashilganda voqea va jarayonlar orasidagi o'zaro bog'liqlik, tarixiy aloqadorlik, sabab va oqibat bog'lanishining ifodasi bo'lgan uzluksizlikning ahamiyati ortadi. Bunday yondashuv qadriyatlarga, ular bilan bog'liq jarayonlarga nisbatan qo'llanilganda ijobiy ilmiy va amaliy natija beradi.

Bunda pedagogik qadriyatlar tartibsiz namoyon bo'ladigan va bir-biri bilan bog'lanmagan ijtimoiy hodisa sifatida emas, balki u yoki bu davr, ijtimoiy subyekt va boshqalar bilan bog'langan aksiologik tizimlar hamda ularning elementlari sifatida namoyon bo'ladi. Qadriyatlarga bunday yondashishda



ijtimoiy fanlarning yutuq lari, tarix, etnografiya, demografiya va sotsiologik tadqiqot laming natijalariga tayanish yaxshi natija beradi.

Ammo qadriyatlarni o'rganishda faqat ana shular bilan chegaralanib qolish yaramaydi. Balki reallik, uning namoyon bo'lish shakllari, voqea-hodisa va jarayonlarning qadri, ijtimoiy ahamiyatini anglash ham nihoyatda muhim. Bunda ularning ijtimoiy funktsiyalari, o'ziga xos tashqi ta'simi anglash katta ahamiyat kasb etadi. Faqat aksiologik yondashuv asosida qadriyatlarining ilmiy kategoriya sifatidagi mohiyati, boshqa tushunchalardan farqi, obyektiv asoslari va subyektiv anglab olinishi, namoyon bo'lish shakllari haqida to'g'ri ma'lumotlar olish mumkin. Bunda narsa, voqea-hodisalar, kishilar va ularning faoliyatiga qadr hamda qadrlanish darajasi nuqta nazaridan qaraladi.

Shuningdek, falsafiy tushunchalarni aksiologik yondashuvga asoslangan holda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga tabiatda yuz berayotgan tashqi va ichki jarayonlarning asosiy holatini o'rganish, tahlil qilish, muhofaza qilish ya'ni qadirlash lozim. Bu mashg'ulot o'quvchining yosh imkoniyatlarini hisobga olgan holda uning hayotiy va kognitiv salohiyatiga asoslanishi kerak.

#### Adabiyotlar:

1. Ataqulova N.A. Ta'lim jarayonida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish tizimi: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD): diss. avtoref. - Namangan, 2019. -21 b.
2. Davronov Z.D. "Falsafa", o'quv qo'llanma. - T.: "Iqtisod Moliya", 2006. - 123 b.
4. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar // Mas'ul muxarrir: N. Komilov // - T.: "Sharq", 1998. -240 b.
5. Mardonov Sh. Pedagogik ta'lim tizimida ta'limiy qadriyatlar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish.- T.: Fan, 2006. -232 b.
6. Ma'murov B.B. O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayonini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari. Monografiya. - T.: "Nihol", 2014. -94-b.
7. Temirova N.E. Qadriyatlar va bolalar kamoloti. -T : Falsafa va huquq instituti. 2008. B.26
8. Tomenov J. Qadriyatlar falsafasi.- T.: O'zbekiston, 1998.- 335 b.